MAKTABDA OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISHNING NAZARIY VA AMALIY XUSUSIYATLARI

Yuldosheva Begoyim

NavDPI o‘zbek tili adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarga ot so‘z turkumining tushuntirilishi, ularni esda oson saqlab qolishlari va darslarni o‘zlashtirishdagi qulayliklar haqida ma'lumot berilgan. Ushbu ma'lumotlar ona tili darsliklari va metodlar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, ot so‘z turkumi, otlarning ichki guruhlari, turlanishi, egalik, birlik va ko‘plik otlar, zinama-zina, lug‘at diktant.

Maktab ta’limida o‘quvchilarning nutqiy savodxonligi, imloviy savodxonligi, so‘z boyligini oshirishda hamda matn yarata olish texnikasini shakllantirishda so‘z turkumlarining o‘rni muhim. Avvalo, o‘quvchilarga so‘z turkumi haqida nazariy ma’lumot berish orqali uning mohiyati ochiqlanadi. Mazkur bo‘lim haqida so‘z ketganda uni sodda va tushunarli, qisqa va lo‘nda qoidalarga asoslanib tushuntirish zarur. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Grammatik qoidalar asosida o‘rgatishda quyidagi bosqichlarni bosib o‘tish zarur. Morfologiya bo‘limida so‘z turkumlari o‘rgatilishi va unda 3 ta katta guruhga bo‘linishi. 1) mustaqil so‘z turkumlari; 2) yordamchi so‘zlar; 3) oraliqdagi so‘lar (alohida olingan so‘zlar)[1].
Morfologiya so‘z turkumlari, ularga xos grammatik ma‘nolarni, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni, bu kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi grammatik shakl, grammatik ma’nolar va shakllarni o‘rganadi.[1] Boshlang‘ich sinfdan boshlab morfologiya haqida tushunchalar berib boriladi. Bunda morfologiyaning bir kichik guruhga mansub mustaqil so‘z turkumlari, ya’ni ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l so‘z turkumlari kiradi. So‘z turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi so‘zlarning leksik grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko‘ra turli guruhlarga ajratilishi, ya’ni so‘z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.[2]
Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarining o‘qitilishining sababi o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, ularning lug‘at boyligini oshirish, shu vaqtgacha o‘rgangan, kundalik hayotda foydalanib kelgan so‘zlarining ma’nolarini kengroq tushunib olishlari, nutqda ulardan foydalanish malakasini oshirish hisoblanadi. O‘quvchilarda ot so‘z turkumining o‘qitilishi, umuman so‘z turkumlarining o‘qitilishi tizimli jarayon hisoblanadi. Ma’lumotlar bosqichma-bosqich darsliklarda berib boriladi.
Ot mavzusini o‘zlashtirishda birinchi uning umumlashtirilgan ma’nosi o‘rganiladi, qanday so‘roqlarga javob bo‘lishi va grammatik belgilari haqida bir biri bilan bog‘langan holda ma’lumot beriladi. Boshlang'ich sinflarda otni o‘rganish vazifalari quyidagilar:
1. “Ot” so‘z turkumi haqidagi grammatik tushunchalar berilishi, ya’ni atrof muhitdagi barcha narsa, shaxs, joylar va ularning nomlari ham ot so‘z turkumi deb yuritilishi muhim hisoblanadi.
2. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (shaxs bildirgan) otlarni va nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni) otlardan o‘zaro farqlash;
3. Kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko‘nikmasini shakllantirish hamda mazkur nomlarning shaxs nomlaridan farqini tushuntirish;

1 O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. –B.

4. Otlardagi son (otning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi) kategoriyasining lug‘aviy va grammatik ko‘plikni farqlashni o‘rgatish;
5. Otlarni egalik qo‘shimchalari bilan to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish va egalik qo‘shimchasining shakl va ma’no tomonini o‘rgatish. Masalan, so‘zlardan ajratilib o‘rganiladigan hamda so‘zlardan ajralmaydigan holatlarni tushuntirish;
6. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqida tushuntirilishi otlarning belgisiz kelganda qanday qilib “tiklash” usullarini o‘rgatish;
7. O‘quvchilar lug‘atini turli rasmlar va matnlar orqali ot so‘z turkumiga oid leksemalari bilan boyitish va ulardan nutqda, matn yaratishda aniq, o‘rinli foydalanish malakasini o‘stirish;
8. Ot turkumiga oid so‘zlarni boshqa turkumdagi so‘zlar bilan farqlash uchun taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish haqida ma’lumotlar berib boriladi.
Har bir so‘z turkumlarining o‘zining leksik ma’nosi va grammatik belgilari mavjud. Ot so‘z turkumi bu jihatdan boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi. Otlar nimani bildirib kelishiga, ifodalashiga ko‘ra quyidagi ichki guruhlarga bo‘linadi:
– ot jonli mavjudotlarni bildirib kelishiga ko‘ra insonlar va hayvonlarga nisbatan;
– yer va osmon jismlariga oid so‘zlar yordamida kim?, nima? va qayer? so‘roqlarini to‘g‘ri bera olish texnikasini shakllantirish. Masalan: quyosh, yulduz leksemalari qachon kim? qachon qayer? va qachon nima? so‘roqlariga javob berishini o‘rgatib borish usullarini o‘rgatish; Masalan, yulduz leksemasining hosila ma’noda kim? so‘rog‘iga javob berishini bilishi so‘z qo‘llash qobiliyatini yanada kengaytiradi.;
– o‘simliklar dunyosiga oid leksemalarning o‘z va ko‘chma ma’nosini bilish orqali turkumlardagi “xoslanishni” o‘rgatish;
– turkumdagi “voqealar” ma’noviy guruhiga ot turkumidagi qanday so‘zlar kirishini o‘rgatish;
– tabiat hodisalari – shamol, bo‘ron, yomg‘ir, momaqaldiroqlarni otning qaysi guruhiga kiritishni o‘rgatish;
– belgi-xususiyatni bildiruvchi otlarni, ya’ni ahillik, kuchlilik, donolik kabi leksemalarni qaysi belgisiga qarab shunday ma’no anglatishini tushuntirish;
– harakat-holatni bildiruvchi otlarga qanday leksemalar kirishini tutuntirish;
– vaqtni bildirdigan otlarga soniya va daqiqadan tashqari *yoz, bahor, qish, kuz* kabi leksemalar nima uchun kirishini izohlash;
– o‘rin-joy nomlarini bildirib keladigan otlarni aniqlashda “joy oti” va “joy nomi” tushunchalarni farqlashni o‘rgatish.
Yuqori sinflarda esa otning grammatik shakllari birlik va ko‘plik shakllari, otlarning egalik shakllari bilan o‘zgarish hodisasi, kelishiklar bilan turlanishi, gapda keladigan vazifasiga ko‘ra ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol bo‘lib kelishi o‘rganilib boriladi.
Boshlang‘ich sinflarda mavzularni tushuntirishda nazariy bilimlarni o‘yinlar bilan o‘tilishi, o‘quvchilarda mavzusini tushunishni osonlashtiradi. Bunda “Zinama-zina” o‘yinidan foydalanib mavzuni mustahkamlash, otlarni bir biridan farqlab olish mumkin. Bu o‘yinni o‘tkazish juda ham oson va qiziqarli. O‘quvchilar uch guruhga bo‘lib olinadi va har bir guruhdan bir nafardan ishtirokchi chiqadi. Bu o‘yin sinf jihozlari bilan o‘tkaziladi. Ishtirokchilar xona ohiridagi partalar yoniga turib olishadi. Har bir ishtirokchi o‘z guruhining partasi yoniga turib oladi. Yuqorida keltirilgan otlarning ichki guruhcgalaridan foydalanib o‘qituvchi ishtirokchilarga bir savol bera boshlaydi. Birinchi javob bergan ishtirokchi bir zina oldingga chiqadi va o‘yin ohirida qaysi ishtirokchi birinchi kelsa g‘alaba qozonadi. Bu o‘yin orqali mavzuni mustahkamlash va o‘quvchilarning mavzuni qay darajada tushunib olganliklarini bilib olish mumkin.
Bundan tashqari "Uzum" nomli o‘yindan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilimini tekshirish, xotirasini ishga solishi, darsga qanchalik diqqat qilib o‘tirganligini bilib olish mumkin. Bu o‘yin kichik guruhchalarga bo‘linib o‘tkaziladi. Har bir guruhga listga chizilgan uzum shakli berib chiqiladi

va ma’lum vaqt belgilab beriladi. Ot so‘z turkumi oladigan bo‘lsak, bir guruh atoqli otlarga, bir guruh narsa-buyum otlariga, bir guruh o‘rin joy otlariga va shu kabi otlar barcha guruhlarga bo‘lib beriladi. Jamoalar belgilanggan vaqt ichida o‘z jamoalariga berilgan vazifasi qanchalik bajarishlari kuzatiladi. Bu o‘yinning foydali va samarali tomoni shundaki, o‘yin orqali o‘quvchilar darsni o‘zlashtirishadi, vaqt bilan ishlashni o‘rganishadi, o‘zlarida jamoaviy ishlash ko‘nikmasini shakllantirib borishadi. Bundan tashqari faqatgina dars bilan chegaralanib qolmasdan kundalik hayotlarida ishlatadigan, radiodan eshitgan, kitoblardan o‘qigan jumlalardan ham ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni topishga harakat qilishadi. Bu orqali darsda olgan nazariy bilimlarni amaliyotda qay darajada qo‘llay olishlari aniqlab olinadi.

“Lug‘at diktant”

O‘quvchilardan o‘tilgan mavzuga oid darslikda berilgan so‘zlardan, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib 15-20 ta so‘zdan iborat lug‘at diktant olinishi ham darslarni o‘zlashtirishga, mavzuga beriladigan har bir so‘zga diqqat qilishni oshiradi. Ot mavzusi yuzasidan diktant olinishi orqali, atoqli va turdoshlar otlar, joy nomlarining yozilishini o‘rganib olishadi. Diktant olinib bo‘lingandan so‘ng, "xatolar ustida ishlash" metodining qo‘llanishi ham o‘quvchida mavzuni o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar bilan individual ishlab, har bir o‘quvchining qaysi so‘zda xato qilganligi o‘rganilib, o‘quvchiga qayta tushuntirishi orqali mavzuni o‘zlashtirishdagi kamchiligini bartaraf qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarda faqatgina nazariy bilimlarni beribgina qolmasdan, berilgan ma’lumotlarni qay darajada tushuna olishayotganligini, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishlarini ham tekshirib borish zarur. Buni amalga oshirishda metodlar, didaktik o‘yinlar katta samara beradi. Bu orqali o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirib borishini, xotirasini mustahkamlashga, vaqt bolani ishlash, jamoa bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirib, o‘quvchini o‘sishaga katta amaliy yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. –B.

2. Nuritdinova Toshtilla. Boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumi mavzusini o‘qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. Tadqiqotlar jurnali, 2022.

3. Ona tili: Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Javlon Yaxshiboyev. Toshkent – 2020.

4. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Orifjon Madvaliyev. Toshkent – 2022.

5. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Orifjon Madvaliyev. Toshkent – 2022.